

**O`zbekiston Respublikasi**  
**Adliya vazirligida**  
**2010 yil 25 iyunda 2117-son**  
**bilan ro`yxatga olingan**  
**O`zbekiston Respublikasi**  
**Xalq ta'limi vazirligi va**  
**Vazirlar Mahkamasi huzuridagi**  
**Davlat test markazining**  
**2010 yil 8 iyundagi**  
**23 va 11 /QQ-son qaroriga**  
**ILOVA**

**5-9-sinf o`quvchilarining bilimlari sifatini**  
**nazorat qilishning reyting tizimi to`g`risida**  
**NIZOM**

Muqaddima

I. Umumiy qoidalar

II. Reyting tizimining maqsad va vazifalari

III. Reyting tizimining nazorat turlari va ularni amalga oshirish

IV. O`quvchilarning bilim saviyasini baholash va yakuniy reyting ko`rsatkichlarini aniqlash

V. Yakuniy qoida

Mazkur Nizom O`zbekiston Respublikasining "Ta'lim to`g`risida"gi (O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda) va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida"gi (O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda) qonunlariga hamda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203-son "O`zbekiston

Respublikasida umumiy o`rta ta'limni tashkil etish to`g`risida"gi qaroriga muvofiq umumiy o`rta ta'lim maktablarida 5-9-sinf o`quvchilarining bilimlarini baholash va ularning reytingini aniqlash tizimini belgilaydi.

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. Umumiy o`rta ta'lim maktablarida 5-9-sinf o`quvchilarining (keyingi o`rinlarda o`quvchilar deb yuritiladi) bilimlari sifatini nazorat qilishning reyting tizimi (keyingi o`rinlarda reyting tizimi deb yuritiladi) O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi 390-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o`rta ta'limning davlat ta'lim standartining (keyingi o`rinlarda Davlat ta'lim standarti deb yuritiladi) tarkibiy qismi hisoblanadi.

2. Reyting tizimi barcha umumiy o`rta ta'lim maktablarida joriy etiladi va mazkur Nizom asosida amalga oshiriladi.

3. O`quvchilarning bilimini baholash quyidan yuqoriga qarab ijobiy baholash mezoni asosida amalga oshiriladi.

## II. REYTING TIZIMINING MAQSAD VA VAZIFALARI

4. Reyting tizimining maqsadi Davlat ta'lim standartida belgilangan talablarning bajarilishida o`quvchilarning bilimlari, ko`nikma va malakalarini xolisona baholash, ularning bilim olishga bo`lgan qiziqishlarini rag`batlantirish va reytingini aniqlashdan iborat.

5. Reyting tizimining vazifalari quyidagilardan iborat:a) o`quvchilarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko`nikma va malakalarining shakllanganligi darajasini nazorat qilish;

b) o`quv fanlari bo`yicha o`quvchilarning doimiy ravishda darslarga tayyorgarlik bilan kelishini ta'minlash;

v) o`quvchilarning bilimlari, ko`nikma va malakalarini baholashda haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholash prinsiplariga rioya etilishini ta'minlash;

g) o`quvchilarda bilim, ko`nikma va malaka saviyasini shakllanish sur'atini muntazam ravishda tahlil qilib borish;

d) o`quvchilarning bilimlari, ko`nikma va malakalari darajalarini taqqoslash va ta'lim jarayonida o`zaro musobaqa muhitini yaratish;

e) o`quvchilarni ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlash, kasb tanlashga yo`llash ishlarini mukammallashtirish;

j) o`quvchilar bilimlari, ko`nikma va malakalarining shakllanishida yuzaga kelishi mumkin bo`lgan bo`shliqlarning oldini olish, ularni aniqlash va bosqichma-bosqich bartaraf etilishini amalga oshirish;

z) o`quvchining to`laqonli bilim olishi uchun unga eng maqbul pedagogik, didaktik, psixologik sharoitni yaratish;

i) o`quvchilarda bilim, ko`nikma va malakaning mustahkamlab borilishini ta'minlash hamda ularni qo`llab-quvvatlash, ruhlantirish va ilhomlantirish.

### III. REYTING TIZIMINING NAZORAT

#### TURLARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH

6. O`quvchilarning bilim saviyasi va o`zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o`tkazish nazarda tutiladi: joriy nazorat - so`rovlar, kollokviumlar, seminarlar, kontrol ishlar, testlar tarzida o`quvchilarning bilimlari, ko`nikma va malakalari muntazam nazorat qilinadi; oraliq nazorat - chorak tamom bo`lganda va o`quv dasturining tegishli bo`limi tugallangandan keyin o`quvchilarning bilimlari, ko`nikma va malakalarini baholash uchun amalga oshiriladi. U imtihonlar, testlar, sinovlar va malakaga doir ishlar shaklida o`tkaziladi. Ushbu nazoratda foydalaniladigan materiallar o`quv fani o`qituvchisi tomonidan tayyorlanadi. Oraliq nazoratda nazorat ishlarining miqdori va mavzulari o`quv dasturiga asoslangan mavzuiy rejada belgilanadi hamda muddati va shakli ko`rsatiladi; bosqichli nazorat - o`quv yili tamom bo`lgandan keyin imtihonlar, test sinovlari, sinovlar shaklida amalga oshiriladi. Uning asosida reyting aniqlanadi va o`quvchini navbatdagi sinfga o`tkazish to`g`risida qaror qabul qilinadi. Bosqichli nazorat materiallari namunalari O`zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining Respublika ta'lim markazi tomonidan tayyorlanadi. Nazorat ishlari materiallari namunalariga ijodiy yondashgan holda o`quv fani o`qituvchilari bosqichli nazorat materiallariga o`zgartirishlar kiritishi va ularni uslubiy birlashmalar muhokamasidan o`tkazib, joriy etishlari mumkin; yakuniy nazorat - o`qish tugallangandan keyin davlat attestasiyasi shaklida o`tkaziladi.

### IV. O`QUVCHILARNING BILIM SAVIYA SINI BAHOLASH VA YAKUNIY REYTING

#### KO`RSATKICHLARINI ANIQLASH

7. Reyting tizimida o`quvchining har bir fan bo`yicha o`zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

8. Har bir nazorat turi qanday shaklda o`tkazilishidan qat'i nazar, besh (5) ballik ("5", "4", "3", "2", "1")

usulda butun sonlar yordamida baholanadi. O`quvchilarning har bir nazorat turi bo`yicha bilimni baholash va reyting ko`rsatkichini aniqlash ularning o`quv fani mavzusi bo`yicha tasavvurga ega bo`lishi, mavzuning mohiyatini tushunib yetishi va aytib bera olishi, olgan bilimlarini amalda qo`llay olishi, mustaqil mushohada yurita olishi, ijodiy fikrlay olishi va xulosa qabul qila olishi, masalalar hamda mustaqil ishlarni bajarishi kabi mezonlarga qarab amalga oshiriladi.

9. Haftasiga 1 soatdan ortiq o`qitiladigan o`quv fanlari bo`yicha:

chorak davomida joriy va oraliq nazoratlarda olingan ballar asosida choraklik baho; choraklik baholar va bosqichli nazoratda olingan ball asosida yillik baho aniqlanadi. Bosqichli nazorat o`tkazilmaydigan o`quv fanlari bo`yicha yillik baholar choraklik baholarga qarab belgilanadi.

10. Haftasiga 0,5 va 1 soat o`qitiladigan o`quv fanlari bo`yicha:

yarim yil davomida joriy va oraliq nazoratlarda olingan ballar asosida yarim yillik baho; yarim yillik baholar va bosqichli nazoratda olingan ball asosida yillik baho aniqlanadi. Bosqichli nazorat o`tkazilmaydigan o`quv fanlari bo`yicha yillik baholar yarim yillik baholarga qarab belgilanadi.

11. Umumiy o`rta ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun choraklik (yarim yillik) baholar asosida yillik baho, shuningdek yakuniy nazoratda olingan ball va yillik baho asosida yakuniy baho aniqlanadi. Yakuniy davlat attestasiyasi belgilanmagan o`quv fanlari bo`yicha yillik baho yakuniy baho hisoblanadi. Yakuniy baholar bitiruvchiga beriladigan umumiy o`rta ta'lim to`g`risidagi shahodatnomaga qayd etiladi.

12. Baholash o`quvchini sinfdan-sinfga o`tkazish uchun asos bo`ladi. O`quvchini keyingi sinfga o`tkazish ijobiy baho olgan taqdirda amalga oshiriladi. Maktab pedagogika kengashi qarori bilan o`quvchilar qoniqarsiz baholar bilan sinfdan-sinfga o`tkazilishi mumkin.

13. O`quvchi, uning ota-onasi yoki ularning o`rnini bosuvchi shaxslar yillik bahodan norozi bo`lsa, unga maktab pedagogika kengashi tomonidan tuziladigan tegishli fan komissiyasiga (ota-onalar yoki ularning o`rnini bosuvchi shaxslar ishtirokida, agar ular shuni xohlasalar) imtihon topshirish imkoni beriladi. Qayta imtihon topshirishga barcha ko`chirish sinflarida (bitiruv sinflari bundan mustasno) faqat joriy o`quv yilida o`qitilgan fanlar bo`yicha ruxsat beriladi.

14. O`qituvchilar va o`quvchilar o`rtasidagi baholashga oid bahsli vaziyatlar Maktab pedagogika kengashi a'zolaridan iborat tarkibda bahsli masalalar komissiyasi tomonidan hal etiladi.

15. O`quvchilarning o`quv yili davomida nazorat turlari bo`yicha olgan ballari hamda yillik (yakuniy) baholari asosida har bir o`quv fanidan yillik reyting ko`rsatkichi aniqlanadi: Bunda o`quvchining yillik (yakuniy) bahosi:

"5" bo`lganda - 86, 90, 95 va 100 reyting ko`rsatkich ballaridan biri;

"4" bo`lganda - 71, 75, 80 va 85 reyting ko`rsatkich ballaridan biri;

"3" bo`lganda - 56, 60, 65 va 70 reyting ko`rsatkich ballaridan biri qo`yiladi.

Yillik reyting ko`rsatkich ballari yuqorida qayd etilgan ballardan iborat bo`lib, uni belgilashda boshqa raqamlardan foydalanilmaydi, minimal 55 ball bundan mustasno. Agar o`qituvchi o`quvchining yillik reyting ko`rsatkich balini 56 balldan kamligini e`tirof etsa, u holda o`quvchining yillik reyting bali minimal 55 ball etib belgilanadi.

16. O`quvchining yillik reyting ko`rsatkich ballarini aniqlash usuli o`quv fani xususiyatidan kelib chiqqan holda o`qituvchi tomonidan belgilanadi.

17. O`quvchilarning nazorat turlari bo`yicha olgan ballari hamda choraklik (yarim yillik) va yillik (yakuniy) baholari, shuningdek yillik reyting ko`rsatkich ballari sinf jurnaliga qayd etiladi.

18. O`quvchining choraklik (yarim yillik), yillik (yakuniy) baholari va yillik reyting ko`rsatkich ballari uning tabelida qayd etiladi.

## V. YaKUNIY QOIDA

19. Mazkur Nizomda belgilangan masalalar bo`yicha kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.

***"O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami", 2010 yil, 26-27-son, 215-modda.***

